

**Karabekov Ulug‘bek Abdukarimovich**

Jizzax Politexnika instituti.

Jizzax, O‘zbekiston

## **XARITALARINI VIZUALLASHTIRISHDA MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARINI QO‘LLASH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya:** Maqolada, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda mavjud bo‘lgan bir qator asosiy topografik va mavzuli kartalar bir necha o‘n yil oldin chop etilgan bo‘lib, ulardagi ma‘lumotlar eskirib ketgan va o‘z ma‘nosini yo‘qotgan. Yangi zamon talablariga mos kadastr kartalarini yaratishda biz distansion zondlash ma‘lumotlari asosida shakllantirilgan ma‘lumotlardan foydalanishimiz zarur. Yangi tuzilgan elektron va raqamli kartalarning afzalliklari shundaki, kartani tuzish jarayonida qo‘yilgan ayrim xatoliklarni tuzatish xech qanday muammoni keltirmaydi va ko‘p vaqt talab etmaydi.

**Kalit so‘zlar:** Fotogrammetriya, distansion zondlash, raqamli kartalar, qishloq xo‘jaligi kartalari.

**Karabekov Ulugbek Abdukarimovich**

Jizzakh Polytechnic Institute.

Jizzakh, Uzbekistan


## **IMPROVING THE METHOD OF USING REMOTE SENSING MATERIALS IN THE VISUALIZATION OF MAPS**

***Annotation.** In the article, a number of the main topographic and thematic maps available in the socio-economic sphere were published several decades ago, and the information on them is outdated and has lost its significance. When creating cadastral maps that meet the requirements of a new era, it is necessary to use data generated on the basis of Earth remote sensing data. The advantages of newly created electronic and digital maps are that the correction of some mistakes made in the process of creating a map does not cause any problems and does not take much time.*

**Key words:** *Photogrammetry, remote sensing, digital maps, agricultural maps.*

Rivojlangan mamlakatlarda GAT dasturlari orqali yerlarni monitoringini amalga oshirish keng qo'llanilmoqda. Respublikamizda elektron xaritalarni yaratishni takomillashtirish lozim. Vaxolanki xozirda qishloq xo'jaligi va landshaft kartalarini yaratish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065-sonli farmonining 2-bandiga asosan soxada uchuvchisiz apparatlardan foydalangan xolda qishloq xo'jaligi yerlarini, qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va parvarishlashni monitoring qilish, geodezik ma'lumotlar va kartografik materiallaridan foydalangan xolda sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimi ishlashini ta'minlash [1].

Bugungi kundagi mavjud qishloq xo'jaligi yerlari elektron axborot tizimi orqali ma'lumotlar olish talabga javob bermaydi. Zamonaviy va tezkor yer hisobini yuritish usuli bu GAT dasturlari yordamida joylarning taxlilini olib borish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mavjud bo'lgan bir qator asosiy topografik va mavzuli kartalar bir necha o'n yil oldin chop etilgan bulib, ulardagi ma'lumotlar eskirib ketgan va o'z ma'nosini yo'qotgan. Yangi zamon talablariga mos kadastr kartalarini yaratishda biz distansion zondlash ma'lumotlari asosida shakllantirilgan ma'lumotlardan foydalandik. Yangi tuzilgan elektron va raqamli kartalarning afzalliklari shundaki, kartani tuzish jarayonida qo'yilgan ayrim xatoliklarni tuzatish xech qanday muammoni keltirmaydi va ko'p vaqt talab etmaydi.



*1-rasm. Dronlar yordamida qisloq xo'jaligi yerlarini aerosuratga olish.*

Hozirgi yaratilgan GAT texnologiyalarining versiyalari avvalgilarini to'la qamrab olgan va bir muncha takomillashgan. Bu esa avvalgi elektron versiyalarida tuzilgan raqamli kartalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Karta dasturini ishlab chiqish uchun asos bulib kartani tuzish uchun olingan buyurtma xisoblanadi. Unda karta nomi (mavzusi), masshtabi, maqsadi, kartaga olinayotgan xudud ko'rsatiladi.

Tematik mazmundagi shartli belgilarni ishlab chiqarishda, mavzu bo'yicha ob'ektlar va komplekslarining xususiyatlari e'tiborga olinadi [5]. Ularni kartalarda tasvirlash jarayonida, asosan, kartografik tasvirlash usullari xamda shartli belgilardan foydalaniladi [6]. Ko'pgina ob'ektlarni kartaning masshtabi tufayli aks ettirib bulmaydi.

Tabiiy mazmundagi ba'zi elementlarni ko'rsatishda kartografik tasvirlash usullari - chiziqli belgilar ishlatilgan. Bunday usul bilan maydonli ob'ektlarning chegaralarini ko'rsatiladi.

Atribut ma'lumotlar qator va ustunlardan tashkil topgan bo'lib, ular maxsus jadvallar shaklida ifodalanadi. Ob'ektlarning atribut jadvallari xar bir nuqta, yoy yoki maydon xaqidagi ma'lumotni saqlaydigan maxsus fayli xisoblanadi [7].

Misol uchun, tuproq va o'simlik xaritalarini taqqoslaganda ularni turi bir biriga mos kelgani maqsadga muvofiqdir, chunki umumlashtirish va toifalarni birlashtirish natijasida chegaralar sezilarli darajada o'zgaradi. Har xil darajadagi toifalarni bir biri bilan solishtirganda albatta shuni e'tiborga olish lozim. Maydon ichidagi atributlar doimiy miqdorda bo'lsa, ushbu maydon bir yaxlit qilib saqlanadi. Sifatli rang yoki miqdorli rang usulida tuzilgan xaritadan maydon to'g'risida ma'lumotlarni olib ularni kompyuter xotirasiga kiritish va mavjud chegaralarni aniqlash qulaydir [6].

**Xulosa.** Mavzuli kartalarni yaratishning bu usullarida ish jarayonini jadallashtirish bilan bir qatorda ish sifatini oshiradi. GAT texnologiyalari negizida

tuzilgan kartalarni zarur bo'lganda nashr qilinadi zarurat bo'lmasa elektron ko'rinishda foydalanishga topshiriladi.

### **Adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065 sonli Farmoni.

2. Abdullaev A.D., Xolbaev G.X., Safarov E.YU. "Agrometeorologiyada munosabatli tenglamalarni topishda matematik statistikani qo'llash, EXM va geografik axbarot tizimlarida foydalanish uchun ko'rsatma" Toshkent 2009.

3. Sultonov MD. "Geoinformatsion kartografiya" / Ukuv uslubiy kullanma. - Urganch: UrDU, 2014.

4. Улуғбек Абдукаримович Карабеков, & Вохид Шокир Угли Каримов (2021). Использование ГИС-технологий в городах строителство. Science and Education, 2 (5), 257-262.

5. Карабеков, У. А. (2022). Роль лазерных сканеров в картографии объектов строительства. Механика и технология, (Спецвыпуск 2), 223-226.

6. Улуғбек Абдукаримович Карабеков, Санжар Шодмон Ўғли Худойкулов, & Марғуба Шавкатовна Исматова (2023). Инновацион технологиялар асосидаер ресурсларидан самарали фойдаланиш. Science and Education, 4 (4), 113-119.

7. Karabekov, U. A. (2022). IMPROVE THE USE OF GIS IN LAND MANAGEMENT FOR AGRICULTURE AND FARMERS. Евразийский журнал академических исследований, 2(3), 256-259.